



## AYRIM XORIJIY DAVLATLARDA PORAXO'RLIK JINOYATLARI UCHUN JAVOBGARLIK MASALALARI

Ro'zimov Zafar Zokir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati yo'nalishi magistri

zafar5522a@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10021447>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> Oktober 2023

Accepted: 18<sup>th</sup> Oktober 2023

Online: 19<sup>th</sup> Oktober 2023

### KEY WORDS

Xorijiy, mamlakatlar, poraxo'rlik, pora olish, jinoyat, jazo, jinoiy javobgarlik, qonun normalari, mansabdorlik, oldini olish.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ayrim xorijiy davlatlarda poraxo'rlik jinoyatlari uchun javobgarlik masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy davlatlar va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi poraxo'rlik jinoyatlari uchun javobgarlik masalalarining o'zaro uxshash jihatlari ham yoritib berilgan.*

Bizga ma'lumki, xorijiy mamlakatlarning poraxo'rlik jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlik belgilangan qonun normalarini o'rganish poraxo'rlik jinoyatlariga qarshi kurashish hamda uning oldini olishda, shuningdek bu borada xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tgan asrning 90-yillarida yapon tadqiqotchilari korrupsiyaviy jinoyatchilikni kamaytirishda: hokimiyat tuzilmalari faoliyati to'g'risida ma'lumotlarni oshkoralashtirish, mansabdor shaxslarni nazorat qilish uchun markaziy va mahalliy miqyosda mustaqil ombudsman institutini joriy etish, shu turdagi jinoyatlarga qattiq jazo tayinlash (deputatlikka saylanishdan mahrum qilish, umrbod yuqori lavozimga ko'tarilishdan mahrum qilish, saylov guruhidagi shunga aloqador kishilarni jazolash), saylov kampaniyalarini moliyalashni to'la davlat mablag'lari hisobidan amalga oshirishni taklif etgan edi. Yaponiyada korrupsiyaga qarshi kurashish bilan birga, noto'g'ri (tuhmatdan) pora olish haqida xabar berish ham, pora oluvchilarga nisbatan belgilangan jazoga – uch yil muddatga katonga jazosi yoki jarima jazosiga tortilishi mumkin. Jinoyat qonunchiligida amalga oshirilgan islohotlar orqali bir qator mansabdorlik jinoyatlariga beriladigan jazolar og'irlashtirildi. Masalan, davlat va jamoat arboblarning mansabdorlik vakolatlari bilan hokimiyatni suiiste'mol qilishiga 2 yilgacha katonga yoki turma qamog'i jazosi belgilandi. Ilgari bunday jinoyat uchun 6 oygacha shunday jazoga tortilardi.

Xitoyda esa so'nggi paytlarda korrupsiya to'g'risidagi ishlar "xun yan xo shuy", ya'ni "go'zallik – yomonlik manbai" singari qarash zamirida ko'rib chiqiladi. Xitoylik huquqshunoslar fikriga ko'ra, Xitoyda "jinsiy xizmat orqali pora olish"ning ikkala tarkibiy qismlari: pora va jinsiy xizmat ko'rsatish keng tarqalgan. Bir qancha ekspertlar fikriga ko'ra, jamiyat va shaxsga ta'sir etish darajasiga qarab, "jinsiy xizmat orqali pora olish" pul yoki qimmatbaho buyumlar tarzida oddiy sovg'a olishlarga qaraganda xavfliroqdir. Ushbu



yangilikka qarshi bo'lganlar bunday porani aniqlash pul uchun sevgi izhor qilish faktidan, ya'ni fohishabozlikdan qiyinroq ekanligini ko'rsatadilar. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksida pora oluvchiga tayinlanadigan jazo og'irligi olingan pora miqdoriga bevosita bog'liqdir. Jinsiy xizmat ko'rsatishni esa qanday o'lchasa bo'ladi? Xitoyda "jinsiy xizmat orqali pora olish" tushunchasi legallashtirilishi hali aniqlanmas.

Daniya, Finlyandiya, Shvesiya, Yangi Zelandiya, Kanada, Norvegiya, Avstraliya, Luksemburg, Shveysariya, Irlandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Avstriya ham korrupsiyalashmaganligi jihatdan yuqori o'rinlarda turadigan davlatlar sanaladi. Bu mamlakatlarda korrupsiya hukumat tomonidan milliy xavfsizlik masalasi, ichki va tashqi xavfsizlikka tahdid soluvchi omil sifatida baholanadi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari jinoyat huquqida pora predmeti ancha keng – mulkiy yoki boshqa naf tarzida tushuniladi. Bir qator hollarda pora predmeti sifatida taqdim etilgan moddiy yoki boshqa nafning xususiyatlari jinoyatni tasniflashda muhim ahamiyatga egadir.

AQSh va Buyuk Britaniya jinoyat qonuniga binoan ommaviy tashkilotlarning xizmatchilari – mansabdor shaxslar ham, boshqa xodimlar ham pora olganlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

AQSh, Buyuk Britaniya jinoyat qonunlaridan farqli o'laroq, Italiya, Fransiya va GFRda xizmatchini pora evaziga og'dirishning oldini olishga qaratilgan huquqiy choralar ancha barqarordir. Fransiyada 1992 yilgacha aybdorlar 1810 yilgi JKning 177–183-moddalari bilan javobgarlikka tortib kelingan; Italiyaning 1930 yilgi Jinoyat kodeksiga mansabdorlik jinoyatlariga doir jiddiy o'zgartirishlar faqat 1990 yil kiritilgan. 1871 yili qabul qilingan Germaniya Jinoyat kodeksida poraxo'rlikka oid me'yorlar deyarli o'zgarishsiz qolgan<sup>1</sup>.

Buyuk Britaniya statut huquqida poraxo'rlik uchun javobgarlik 1889, 1906, 1916 va 1925 yilgi qonunlar bilan o'rnatilgan, shuningdek sud pretsedentlari bilan tartibga solingan. Bu Angliyaning korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari dinamik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Mufassal, ba'zan haddan ortiq detallashtirilgan ta'riflar, umumiy sanksiyalar bilan bir xil maxsus normalar tuzish yoki tasniflangan (imtiyozli) tarkiblarni (masalan, choychaqa berish va olish uchun javobgarlik moddasini) zaruratsiz kiritish AQSh korrupsiyaga qarshi qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlaridir.

Ayrim shtatlarda jinoyat qonunchiligini kodifikatsiyalashda tavsiyalari hisobga olinadigan AQShning Namunaviy Jinoyat kodeksida ko'rsatilganidek "ommaviy xizmatchi" atamasi "davlatning har qanday mansabdor shaxsini yoki xizmatchisini, shu jumladan qonun chiqaruvchi va sudyani hamda davlat vazifasini amalga oshirishda yoki boshqa tarzda ishtirok etuvchi har qanday shaxsni anglatadi".

Shu o'rinda AQSh Jinoyat qonunining tajribasi ma'lum ma'noda qiziqish tug'diradi. Masalan, 1967 yilgi Nyu-York shtati Jinoyat kodeksi AQSh Namunaviy jinoyat kodeksidagi tavsiyalardan foydalangan holda poraxo'rlikning javobgarlik har xil bo'lgan turlarini nazarda tutadi: ommaviy xizmatchiga pora berish yoki uni haq evaziga og'dirish tusidagi pora u tomonidan olinishi; ommaviy xizmatchiga xizmat vazifalarini ilgari buzganligi uchun "minnatdorchilik ifodasi"ni, "choy puli"ni topshirish va bu pullarning u tomonidan qabul

<sup>1</sup> Абдурасулова Қ. Коррупцияга қарши кураш. Бу борада чет эл қонунларида нималар белгиланган? // Ҳаёт ва қонун. – № 3, 2003.



qilinishi. Mansabdor shaxslar tomonidan moddiy qimmatliklarning jinoiy ravishda qabul qilinishini va ommaviy xizmatchilarga sovg'alar berish bilan bog'liq hayotiy vaziyatlarni farqlash zarurligini anglagan holda Namunaviy jinoyat kodeksini tuzuvchilar shtatlar kodekslarida xizmatchilarga moddiy qimmatliklar berish va ularni olish jinoyatlar hisoblanmaydigan bir qancha istisno hollarni nazarda tutishni tavsiya etdilar.

Nazarimizda, bunday qonun ijodkorligi amaliyoti bizning davlatimizga maqbul emas. Poraxo'rlikning jinoyat sifatidagi mohiyatining o'zi mansabdor shaxs tomonidan uning xizmat vazifalariga kirmaydigan xatti-harakat uchun qonun bo'yicha unga tegishli bo'lgan haq yoki gonorar olish jinoiy emasligini ko'rsatish zarurligidan ozod etadi. Boshqa "istisnolar"ga keladigan bo'lsak, mansabdor shaxsga sovg'alar yoki turli xizmatlar qarindoshlik yoxud do'stlik munosabatlari tufayli berilganmi, mehmondo'stlik ko'rinishimi yo ular unga aynan uning kelgusida sodir etiladigan yoki sodir etilgan xizmat harakati tufayli berilganmi – bularni aniqlash tergov yoki sud vakolatiga kiradi.

Germaniya huquqshunoslarining fikriga ko'ra, poraxo'rlik jinoyatlari nafaqat sub'ekt – mansabdor shaxsning belgisi bo'yicha, balki himoya qilinadigan ob'ekt – davlat apparati normal amal qilishi bo'yicha ham birlashtirilgan. Unga ko'ra, basharti shaxs: a) amaldor yoki sudya hisoblanadigan; b) boshqa ommaviy-huquqiy xizmat munosabatlarida bo'lsa; yoki v) ommaviy boshqaruv vazifalarini qaysidir hokimiyat organida yoxud boshqa muassasada yo uning topshirig'iga ko'ra amalga oshirishga da'vat etilgan bo'lsa, u mansabdor shaxs hisoblanadi. Bundan tashqari, "bevosita ommaviy xizmat qilishga da'vat etilgan", ya'ni mansabdor shaxsning o'zi bo'lmasa-da, hokimiyatning qaysidir organida ommaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan yoki bunday vazifalarni amalga oshiruvchi muassasa yoxud birlashmada band bo'lgan xodim poraxo'rlik jinoyatlarining sub'ekti hisoblanadi.

Fransiyada ommaviy mansabdor shaxslarning faoliyati turli normativ hujjatlar: ham qonunlar, ham qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi. 1992 yilda qabul qilingan va 1994 yilning sentabrida kuchga kirgan Fransiyaning Jinoyat kodeksi ommaviy mansabdor shaxsni quyidagicha ta'riflaydi: 1) davlat hokimiyatiga ega bo'lgan shaxslar (Fransiya Respublikasi oliy mansabdor shaxslari); 2) davlat xizmatida bo'lgan shaxslar (to'rtta toifadagi amaldorlar); 3) saylanganlik mandatiga ega bo'lgan shaxslar.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi 2008 yil 7 iyuldagi Qonun bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi [konvensiyasiga](#) (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) qo'shildi<sup>2</sup>. Albatta, xalqaro hujjatga qo'shilish, ratifikatsiya qilish unda ishtirokchi davlatlarga muayyan majburiyatlar yuklaydi, muayyan talablar bajarilishini talab qiladi. Konvensiyaning 15-moddasi "Milliy ommaviy mansabdor shaxslarni pora evaziga og'dirish" deb nomlanib, unga ko'ra, har bir ishtirokchi davlat o'z jinoyat qonunchiligida ommaviy mansabdor shaxsga shaxsan yoki vositachilar orqali ushbu mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida, biron noqonuniy afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish uchun javobgarlik belgilashi lozimligi qayd etilgan.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2008. № 28., 260-модда.



O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunida esa faqat taqdim qilish to'g'ridan-to'g'ri jinoyat sifatida baholangan. Shunday bo'lishiga qaramasdan va'da qilish va taklif etish mamlakatimiz jinoyat qonuniga binoan pora berishga suiqasd qilish deb topiladi va qilmish JKning 25-moddasi 2-qismi orqali JKning 211-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Ammo mazkur konvensiyani ratifikatsiya qilgan aksariyat davlatlar jinoyat qonunchiligini o'rganish ularda va'da qilish va taklif qilish uchun ham jinoiy javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri qayd etilganligi, mazkur holat tugallangan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozimligi belgilanganligini ko'rsatadi. Jumladan, pora berish-olishni va'da qilish Koreya Respublikasi JKning 130-133-moddalari<sup>3</sup>, Litva Respublikasi JKning 225-moddasi<sup>4</sup>, Shveysariya JKning 322-moddasi<sup>5</sup>, AQSh Texas shtati JKning 36.02-moddasi<sup>6</sup>, GFR JKning 333-334 paragraflarida<sup>7</sup>, porani taklif qilish esa, Shveysariya JKning 322-moddasida<sup>8</sup> tugallangan jinoyat sifatida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan.

Ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarida pora berish uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ham ko'rsatish mumkin.

Birinchi holat, layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish zaruriyati tufayli, ikkinchi holat, faqatgina axloqiy tusga ega bo'lgan sabablarga ko'ra, uchinchi holat, hadya predmeti orqali davlat xizmatchilarining ayrim toifalari tomonidan sodir etiladigan g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni yashirish holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida, to'rtinchi holat esa – hadya qiluvchining kreditorlari, ayrim hollarda, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining ishtirokchilari manfaatlarini himoya qilish uchun hadyani taqiqlaydigan holatlar sifatida nazarda tutilishini taqozo etadi.

Shuningdek, ilgari qayd etilgan Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksidagi hadya bilan bog'liq norma Qozog'iston Fuqarolik kodeksining 509-moddasida ham mustahkamlangan. Shuningdek, hadyani taqiqlash to'g'risidagi normalar Armaniston Fuqarolik kodeksi (598-moddasi), Belarus Respublikasi Fuqarolik kodeksida (546-moddasi) ham mavjud. Davlat xizmatchilariga nisbatan hadyani taqiqlash to'g'risidagi normalar ayrim davlatlarning davlat xizmati va korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunlarida ham belgilangan. Bunga Ozarbayjon Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasini misol qilish mumkin.

Bundan tashqari, ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida pora olish-berishda vositachilik qilganlik uchun javobgarlik belgilanishiga ko'ra quyidagi ikki turni keltirish mumkin:

– pora olish-berishda vositachilik qilishni jinoyatda ishtirokchi deb baholovchi mamlakatlar qonunchiligi (Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, Tojikiston, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova va h.k.);

<sup>3</sup> Уголовный кодекс Республики Корея. – СПб.: Юридический центр пресс, 2016. – С.104–106.

<sup>4</sup> Уголовный кодекс Литовской Республики. – СПб.: Юридический центр пресс, 2016. – С.310.

<sup>5</sup> Уголовный кодекс Швейцарии. – СПб.: Юридический центр пресс, 2016. – С.281.

<sup>6</sup> Уголовный кодекс штата Техас. – СПб.: Юридический центр пресс, 2016. – С.376.

<sup>7</sup> Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии. – СПб.: Юридический центр пресс, 2016. – С.506-507.

<sup>8</sup> Уголовный кодекс Швейцарии. – СПб.: Юридический центр пресс, 2016. – С.281.



– pora olish-berishda vositachilik qilishni alohida jinoyat tarkibi sifatida baholovchi mamlakatlar qonunchiligi (Armaniston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Belarus Respublikasi va h.k.).

Pora olish-berishda vositachilik qilishni alohida jinoyat tarkibi sifatida baholovchi mamlakatlar jinoyat qonunlarida qilmish uchun javobgarlik belgilangan normalarning tuzilishi ham turlicha. Jumladan, ayrim davlatlarda pora olish-berishda vositachilik qilish oddiy dispozitiv norma sifatida baholangan (masalan, Turkmaniston), ayrimlarida esa bunday norma tasvirlov dispozitsiyadan foydalanilgan (masalan, Armaniston, Qozog‘iston va h.k.).

Jumladan, Turkmaniston Respublikasi JKning 186-moddasida pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra “pora olish yoki berishda vositachilik qilish besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”. Ya‘ni mazkur normada pora olish-berishga tavsif berilmagan.

Shuningdek, Belarus Respublikasi JKning 432-moddasida pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyati uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra pora oluvchi yoki beruvchining topshirig‘i bilan bevosita porani berish olti oygacha qamoq yoki jarima yoxud ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki to‘rt yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan jazolanadi. Ammo, Belarus Respublikasi JKning mazkur normasini mufassal deb bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi JKning 212-moddasida belgilangan normalar nisbatan mufassal berilgan va pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatini nisbatan to‘liq qamrab oladi. Belarus Respublikasi JKning mazkur normasida faqat porani berish orqali vositachilik nazarda tutilgan bo‘lib, pora beruvchi va pora oluvchi o‘rtasida shunday kelishuvga erishishga maqsadida qilinadigan harakatlar ushbu norma bilan qamrab olinmagan.

Shuningdek, Qozog‘iston JKning 313-moddasida pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, pora oluvchi va pora beruvchi o‘rtasida kelishuvga erishish yoki erishilgan kelishuvni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat tahlil qilinayotgan jinoyat tarkibini hosil qiladi. Xuddi shunday norma Armaniston JKning 313-moddasida ham belgilangan: “pora olish-berishda vositachilik qilish, ya‘ni pora oluvchi va pora beruvchi o‘rtasida muayyan kelishuvga erishishga va yoki kelishilgan kelishuvni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat”.

Qozog‘iston va Armaniston JKlarida belgilangan normalar nisbatan mufassal bo‘lib, O‘zbekiston JKda belgilangan normalarga o‘xshash va mazmunan bir xil. Ammo, O‘zbekiston JKda belgilangan normadan farqli ravishda ushbu davlatlar jinoyat qonunchiligida “kelishuvni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat” atamasidan foydalanilgan. O‘zbekiston JKda esa “manfaatdor shaxslarning topshirig‘i bilan porani bevosita berish” atamasi qo‘llanilgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, mantiqan, “kelishuvni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat” atamasi “manfaatdor shaxslarning topshirig‘i bilan porani bevosita berish” atamasidan nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi.